



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

18 ЖИЛД, 2/3 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 18, НОМЕР 2/3

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 18, ISSUE 2/3



ТОШКЕНТ-2025

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№2/3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2025-2/3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farxod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govverjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Boymurodov Botir Panji o'g'li NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA FUQAROLAR ISHTIROKI TASNIFI.....	5
2. Khurramova Adolat Bakhodir kizi EXPERIMENTAL LEGAL REGIMES IN THE DIGITALIZATION OF LAW.....	13
3. Ubaydullayev Abror Qutpilla o'g'li XORIJIIY MAMLAKATLARDA ISLOM MOLIYA HUQUQIGA DOIR QONUNCHILIK EVOLUTSIYASI.....	18
4. Абдуллаев Джамшид Джамилович МЕДИЦИНСКАЯ ПОМОЩЬ И МЕДИЦИНСКИЕ УСЛУГИ: ПРАВОВЫЕ РАЗЛИЧИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ.....	25
5. Алимарданова Ирода Воҳид қизи ТАЪЛИМ ВА ИЛМИЙ МАҚСАДЛАР УЧУН АСАРЛАРДАН ЭРКИН ФОЙДАЛАНИШ.....	32
6. Зокиров Шерзод Илхом ўғли ПРОКУРОР – МУХТАСИБНИНГ ПРОТОТИПИ СИФАТИДА (ФУҚАРОЛАР МУРОЖААТЛАРИ БИЛАН ИШЛАШ МИСОЛИДА).....	39
7. Abzalova Khurshida Mirziyatovna TIME OF COMMITTING A CRIME AND THE RETROACTIVE EFFECT OF THE LAW IN THE CRIMINAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	47
8. Ҳамидов Нурмуҳаммад Ориф ўғли АЙРИМ МАСАБДОРЛИК ЖИНОЯТЛАРИ ОБЪЕКТИНИНГ ЖИНОЯТ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	53
9. Kurbanov Ma'rufjon Mamadaminovich BA'ZI XORIJIIY MAMLAKATLAR JINOYAT QONUNCHILIGIDA RETSIDIV JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	60
10. Shamsidinov Zayniddin Ziyovidinovich CRIMINAL AND LEGAL CHARACTERISTICS OF RECEIVING A BRIBE IN FOREIGN LEGISLATION.....	72
11. Суннатов Воҳид Тошмуродович МАНСАБ СОХТАКОРЛИГИ ЖИНОЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ.....	79
12. Баракайев Лазизжон Отақулович ИҚТИСОДИЙ ЭКСПЕРТИЗАЛАРНИ ТАЙИНЛАШ ВА ЎТКАЗИШ БИЛАН БОҒЛИҚ МУАММОЛАР ТАҲЛИЛИ.....	86



12.00.01-ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

Boymurodov Botir Panji o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: Boymurodovb@mail.ru

NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA FUQAROLAR ISHTIROKI TASNIFI

For citation: Boymurodov Batir Panji o'glu. CLASSIFICATION OF CITIZEN PARTICIPATION IN THE NORM MAKING PROCESS. Journal of Law Research. 2025, 10 vol., issue 2/3, pp. 5-12



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14950431>

ANNOTATSIYA

Maqolada norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining asosiy shakllari bir necha mezonlarga asosan tasniflangan. Jumladan, ish-tirok etish shakllariga kўra; sub'ektlariga kўra norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining shakllari turlarga ajratilgan holda muhokama qilingan. Tasniflash metodi yordamida muhokama qilinishi natijasida norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki o'zining turli jihatlarini namoyon etadi. Bu esa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va qabul qilish jarayoniga fuqarolarni jalb qilish masalasining nazariy-huquqiy asoslarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Qonunchilik hujjatlari, normativ-huquqiy hujjat, norma ijodkorligi, qonun loyihasi, fuqarolar ishtiroki, huquq ijodkorligi, fuqarolar ishtiroki shakllari.

Боймуродов Батир Панжи угли,
Старший преподаватель Ташкентского
государственного юридического университета
E-mail: Boymurodovb@mail.ru

КЛАССИФИКАЦИЯ УЧАСТИЯ ГРАЖДАН В ПРОЦЕССЕ НОРМОТВОРЧЕСТВА

АННОТАЦИЯ

В статье классифицированы основные формы участия граждан в нормотворческом процессе по нескольким критериям. В частности, по формам участия; Рассмотрены формы участия граждан в процессе нормотворчества по их субъектам, разделенные на типы. В результате обсуждения с использованием метода классификации раскрываются различные аспекты участия граждан в нормотворческом процессе. Это имеет большое значение для разработки теоретико-правовых основ привлечения граждан к процессу подготовки и принятия проектов нормативных правовых актов.

Ключевые слова: Законодательные акты, нормативный правовой акт, нормотворчество, законопроект, участие граждан, законотворчество, формы участия граждан.

Boymurodov Batir Panji oglu,

Senior lecturer at Tashkent State University of Law

E-mail: Boymurodovb@mail.ru

CLASSIFICATION OF CITIZEN PARTICIPATION IN THE NORM MAKING PROCESS

ANNOTATION

The article classifies the main forms of citizen participation in the process of norm-making based on several criteria. In particular, according to the forms of participation; according to the subjects, the forms of citizen participation in the process of norm-making are discussed, divided into types. As a result of the discussion using the classification method, citizen participation in the process of norm-making manifests its various aspects. This is of great importance in developing the theoretical and legal foundations of the issue of involving citizens in the process of preparing and adopting draft normative legal acts.

Keywords: Legislative acts, normative-legal act, norm-making, draft law, citizen participation, law-making, forms of citizen participation.

Fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonidagi ishtirokini tahlil qilish, uning nazariy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, sohaga samarali mexanizmlarni joriy etishda fuqarolarning norma ijodkorligida ishtirokini bir necha mezonlarga ko'ra tasniflash masalaning turli jihatlarini ko'rish va to'g'ri baholash imkonini beradi. Zero, o'rganilayotgan ob'ektlarni umumlashtirmasdan va muayyan tizimga solmasdan, ularni ma'lum belgilarga ko'ra saralamasdan turib, biron bir ilmiy sohada, fanlararo ilmiy tadqiqotlarni olib borish mumkin emas[1]. Karl Prinson to'g'ri ta'kidlaganidek, har qanday turdagi faktlarni tasniflaydigan, ular orasidagi o'zaro ta'sirni ko'rgan va ularning ketma-ketligini tasvirlaydigan kishi ilmiy uslubni qo'llaydi va fan odami hisoblanadi[2]. Shuningdek, tasniflash hodisalarning dialektik tabiatini aniqlash xususiyatiga egaligi[3] hamda ilmiy tadqiqot faoliyati bilan birga davlat boshqaruvi va biznes sohalarida qaror qabul qilish jarayonida ham foydalanilishi bilan ahamiyatga ega[4].

Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtiroki doirasidagi munosabatlar o'ziga xos va murakkab xususiyatga egaligi, mazkur munosabatlarda fuqarolar ishtiroki turlicha ko'rinish va shakllarda amalga oshishi sababli tasniflash metodi asosida muayyan xulosalar chiqarish maqsadga muvofiq. Fuqarolarning normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va qabul qilish jarayonidagi ishtirokini quyidagi mezonlarga ko'ra turlicha tasniflash mumkin:

ishtirok etish shakllariga ko'ra;

subyektlariga ko'ra;

bosqichlariga ko'ra.

Fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonidagi ishtirokining yuqoridagi tasnifi nisbiy, albatta. Norma ijodkorligi jarayonida tasniflashning ahamiyatini o'rgangan olimlardan V. Bagdasarov: tasniflashda muammo eng samarali ilmiy mezonni tanlashda emas, balki tasniflashning ob'ektivligi, asoslanganligi va tizimlilik hisoblanadi deb ta'kidlaydi[5].

Norma ijodkorligi o'z xarakteriga ko'ra murakkab va keng qamrovli jarayon bo'lganligi sababli fuqarolar mazkur jarayonda muayyan shaklda ishtirok etishlari mumkin bo'ladi. Xususan, **Axborot olish shaklida** fuqarolar nafaqat tayyorlanayotgan yoki ishlab chiqilishi rejalashtirilgan normativ-huquqiy hujjat loyihalari bo'yicha, balki norma ijodkorligi faoliyati bo'yicha ham zarur va bazaviy ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Zero, demokratik davlatlarda davlat hokimiyatining manbai sifatida xalq nazarda tutiladi. Bu esa o'z-o'zidan davlat hokimiyatini amalga oshirishga oid zarur axborotlar bilan xalqni tanishtirib borish majburiyatini keltirib chiqaradi[6]. Mazkur shakldagi ishtirok orqali olingan ma'lumotlar va u orqali shakllangan huquqiy bilimlar fuqarolarga boshqa shakllar orqali norma ijodkorligi jarayonida samarali ishtirok etishlariga xizmat qiladi.

Albatta, fuqarolar norma ijodkorligiga oid kerakli axborotlarni turli manbalardan olishlari mumkin. Jumladan, normativ-huquqiy hujjat qabul qilishga vakolatli davlat organlari yig'ilishlarida ishtirok etish orqali. Fuqarolarning mazkur shaklda o'zlari uchun kerakli axborotlarni olish tartibi "Axborotdan foydalanuvchilarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining ochiq hay'at

majlislarida hozir bo'lishi tartibi to'g'risidagi namunaviy nizom" bilan belgilanadi[11]. Biroq ayrim olimlar haqli ta'kidlaganidek, fuqarolarga norma ijodkorligi jarayoni va bosqichlari haqida tizimli va to'liq ma'lumotlar beradigan elektron platformalar haligacha mavjud emas[12].

Shuningdek, fuqarolar normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining muhokamasini ham to'g'ridan-to'g'ri kuzatib borish huquqiga ega bo'lmoqda[13]. Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasida qonun loyihalari matnlarini va ularga doir tahliliy materiallarni har bir o'qishdan keyin parlamentning veb-resurslarida tezkor e'lon qilib borish, real vaqt rejimida takliflar hamda mulohazalarni yo'llash imkoniyatini joriy etgan holda mazkur jarayonlarni ommaviy axborot vositalari, shuningdek, parlamentning veb-resurslarida onlayn translyatsiya qilish kabi konseptual qarashlar ilgari surilgan edi[14]. Biroq dastlabki amaliyotlarda texnik nosozliklar tufayli majlislarning onlayn translyatsiya qilinmaganligi haqli ravishda jamoatchilikning keng e'tirozlariga sabab bo'ldi.

Yuqoridagi kabi muammolarning yechimi sifatida Luiziana shtati parlamentida joriy etilgan amaliyotni milliy tajribamizga joriy etish maqsadga muvofiq. Ya'ni Luiziana shtati parlamentida qonun loyihalarining muhokamasi to'g'ridan-to'g'ri keng jamoatchilikka translyatsiya qilinishi bilan birga muhokama bayonnomalari ham yuritiladi va mazkur bayonnomalar parlament saytiga joylashtirib boriladi[15].

Qolaversa, normativ-huquqiy hujjat qabul qilish vakolatiga ega sub'ektlar rasmiy veb-saytida huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan axborotlar doim ham yangilab borilmasligini kuzatish mumkin.

Qonunchilik tashabbusi. Ushbu shakl fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonidagi ishtirokining eng muhim va ahamiyatli shakllaridan biri hisoblanadi. Fuqarolarning qonunchilik tashabbusi sub'ekti sifatida jarayondagi ishtiroki inson huquqlarining kafolatlaridan biri sifatida qaraladi. Qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishda fuqarolar qonun loyihasini tayyorlab, o'z vakillari orqali qabul qilish uchun parlamentga taqdim etadi. Xorijiy tajribada fuqarolarning qonunchilik tashabbusi jarayonidagi ishtirokini turli xil ko'rinishlarini uchratish mumkin. Asosiy farq qonunchilik tashabbusini amalga oshirish uchun qo'yiladigan talablarda ko'rinadi[7].

Shu bilan birga, fuqarolarning qonunchilikka oid takliflarini davlat organlariga qilinadigan odatdagi murojaatlardan farqlash kerakligi ta'kidlanadi[16]. Ya'ni qonunchilikka oid takliflar shunchaki javob berilishi shart bo'lgan murojaat emas, balki qonunchilik darajasida ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan hodisa sifatida baholanishi shart.

"Men qonun chiqarish huquqi barcha fuqarolarga tegishli bo'lgan mamlakatni topishga harakat qilgan bo'lardim, chunki qanday sharoitlarda bir jamiyatda birga yashashlari to'g'ri kelishini fuqarolarning o'zidan yaxshiroq kim ham bilishi mumkin?", "Qonunlarga bo'ysunadigan odamlar ularning yaratuvchisi bo'lishi kerak..." fikrlari qariyb uch yuz yil avval J.J.Russo tomonidan ilgari surilgan davlat va fuqarolar o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma nazariyasida qayd etilgan edi[17]. Bugungi kunda ham bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari asosiga qurilgan, tomonlarning teng huquqliligiga tayanuvchi ko'plab ijtimoiy munosabatlar o'z samarasini ko'rsatib kelmoqda.

Shu jihatdan, norma ijodkorligi jarayoniga ham mazkur qonuniyatning ijobiy jihatlarini tadbiiq etishga harakat qilinmoqda. Shunday harakatlardan biri norma ijodkorligi jarayoniga fuqarolarni fuqarolik-huquqiy munosabatlar asosida jalb qilishdir. Bunda, normativ-huquqiy hujjat qabul qilishga vakolatli davlat organlari fuqarolar bilan shartnoma tuzish yo'li bilan, shuningdek eng yaxshi normativ-huquqiy hujjat loyihasi uchun tanlovlar o'tkazish orqali hamkorlik aloqalarini o'rnatishlari mumkin[18].

Fuqarolik qonunchiligiga ko'ra davlat organlari fuqarolik-huquqiy munosabatlari sohasida Konstitutsiyada nazarda tutilgan ommaviy hokimiyat vakolatlaridan, daxlsizlikdan voz kechishi to'g'risidagi oliy me'yor o'z ifodasini topgan. Davlat, shunday munosabatlarning boshqa ishtirokchilari – fuqarolar va yuridik shaxslar bilan teng maqomga qo'yiladi[19].

Huquqiy munosabatlar ishtirokchisi shaklida fuqarolar vakolatli davlat organlari bilan o'zaro teng aloqaga kirishadi. Bunda fuqarolik shartnomalari asosida yoki ommaviy tanlovlar ko'rinishida fuqarolar normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashlari va normativ-huquqiy hujjat loyihasini qabul qilishga vakolatli davlat organiga taqdim etishlari mumkin bo'ladi.

Fuqarolik qonunchiligiga ko'ra davlat organlari fuqarolik-huquqiy munosabatlari sohasida Konstitutsiyada nazarda tutilgan ommaviy hokimiyat vakolatlaridan, daxlsizlikdan voz kechishi to'g'risidagi oliy me'yor o'z ifodasini topgan. Davlat, shunday munosabatlarning boshqa ishtirokchilari – fuqarolar va yuridik shaxslar bilan teng maqomga qo'yiladi[20].

Norma ijodkorligi ijodiy jarayon ekanligi sababli muayyan normativ-huquqiy hujjat loyihasi intellektual faoliyat natijasi sifatida intellektual mulk ob'ektlari jumlasiga kiradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, norma ijodkorligi jarayonidagi mazkur amaliyotni samarali yo'lga qo'yishda aniq huquqiy mexanizmlar joriy etilishi zarur. Bu esa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini buyurtma asosida tayyorlab beruvchi konsalting firmalari, yosh norma ijodkorlari jamiyatlarini tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yish imkonini vujudga keltiradi.

Umumxalq muhokamasida ishtirok etish shaklida fuqarolar qonunlar loyihalari yuzasidan o'z fikr va takliflarini bildiradi. Ushbu shaklning o'ziga xos xususiyati sifatida umumxalq muhokamasi normativ-huquqiy hujjatning faqat qonun turi loyihasi bo'yicha o'tkazilishini ta'kidlash o'rinli.

Fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtirokining umumxalq muhokamasi shaklining o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda fuqarolar faqat qonun loyihalari bo'yicha muhokamalarda ishtirok etishlari mumkin. Zero, qonungina, ideal holda, xalqning irodasi va manfaatlarini to'liq ifodalaydi[21]. Shuningdek, umumxalq muhokamasi ishtirokchilari doirasi ham aniqlangan bo'lib, faqat fuqarolar, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalari qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi ishtirokchilari bo'lishlari mumkin. Chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlarning ekspertlari O'zbekiston Respublikasi qonun loyihalarining umumxalq muhokamasiga ushbu Qonunga muvofiq jalb etilishlari mumkin[22]. Amaldagi qonunchilikda boshqa turdagi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan umumxalq muhokamasi o'tkazilishi belgilanmagan.

Manfaatdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolar bilan mazmunli muloqotlarsiz, shoshilinch tarzda qabul qilingan qonun hujjatlari samarasiz, to'liq shakllanmagan va bir-biriga zid, shuningdek inson huquqlari va erkinliklariga qarshi normalardan iborat bo'lishi mumkin. Natijada ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish va hatto bekor qilishga to'g'ri keladi[23].

Bu kabi muammolarning oldini olishda qonun ijodkori o'z faoliyatida umumxalq muhokamasidan foydalanadi. Umumxalq muhokamasi tartibga solinayotgan huquqiy muammolarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Fuqarolarning normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va qabul qilish jarayonida umumxalq muhokamasi orqali ishtirok etishi eng keng tarqalgan shakllardan biri ekanligi ham bejizga emas. Qonun ijodkorligi jarayonida umumxalq muhokamasining o'tkazilishi parlament faoliyatining ochiqligi va oshkoraligini oshiradi va pirovardida parlamentga bo'lgan xalqning ishonchini yanada ortishiga olib keladi.

Bugungi kunda fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonidagi ishtirokining eng faol shakli sifatida **jamoatchilik muhokamasini** ko'rsatish mumkin. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali – Regulation.gov.uz orqali fuqarolar turli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari bo'yicha o'z takliflarini bildirishlari mumkin.

Norma ijodkorligi faoliyatida tub o'zgarishlar yasagan "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi"da fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, tadbirkorlik sub'ektlari va ilm-fan vakillarini jalb etish ishlarini samarali tashkil etish orqali norma ijodkorligi jarayoniga jamoatchilik muhokamalarining ta'sir darajasini oshirish vazifasi joy olgan edi. Shu jihatdan, fuqarolar norma ijodkorligi jarayonida jamoatchilik muhokamasi shaklida ham ishtirok etmoqda. Norma ijodkorligi sohasida amalga oshirilgan so'ngi islohotlar natijasida eng muhim normativ-huquqiy hujjat loyihalari bo'yicha jamoatchilik muhokamasi o'tkazilishi yo'lga qo'yildi[24].

Jamoatchilik muhokamasi ham umumxalq muhokamasi shakliga o'xshasada bir qator farqli jihatlarga ega. Jumladan:

Umumxalq muhokamasi normativ-huquqiy hujjatning faqat qonun turi bo'yicha o'tkaziladi. Jamoatchilik muhokamasi esa barcha turdagi normativ-huquqiy hujjatlar doirasida olib boriladi[25].

Umumxalq muhokamalarini o'tkazish tartibi alohida Qonun bilan tartibga solinadi. Jamoatchilik muhokamasining o'tkazilishi tartibi yagona hujjat holiga keltirilmagan.

Umumxalq muhokamasi jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalariga daxldor qonun loyihalari bo'yicha o'tkazilsa, jamoatchilik muhokamasi barcha turdagi normativ-huquqiy hujjatlarning eng muhimlari yuzasidan olib boriladi.

Qonun loyihasi umumxalq muhokamasiga uni qabul qilish vakolatiga ega sub'ekt tomonidan qo'yilsa, normativ-huquqiy hujjat loyihasi jamoatchilik muhokamasiga loyihani ishlab chiqqan ishchi guruh tomonidan qo'yiladi.

Jamoatchilik muhokamasi nafaqat normativ-huquqiy hujjat loyihasi bo'yicha, balki normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash rejasi, tegishli hisobotlar bo'yicha ham o'tkazilishi mumkin.

Bugungi kunda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari bo'yicha jamoatchilik muhokamasi "Regulation.gov.uz" – normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali orqali olib borilmoqda. Ta'kidlash joizki, hozirda jamoatchilik muhokamasi loyihalar bo'yicha takliflar va mulohazalar bildirish bilan cheklanmoqda. Vaholanki, ushbu shaklda fuqarolar yanada kengroq doirada ishtirok etishlari mumkin. Jumladan, Finlyandiya tajribasida jamoatchilik muhokamasi ikki bosqich: normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari hamda amaldagi qonunchilik bilan bog'liq muammolarni aniqlash va ular yuzasidan oqilona yechimlarni topishdan iborat[26]. Fikrimizcha, makur ilg'or xorij tajribasini milliy amaliyotga joriy etgan holda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar bo'yicha ham jamoatchilik muhokamalari o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Jamoatchilik nazorati shaklida fuqarolar qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda jamoatchilik manfaatlarini, jamoatchilik fikrini hisobga olinish holatlarini o'rganishlari mumkin. Ushbu orqali fuqarolar mavjud muammolardan kelib chiqqan holda qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishlari mumkin.

So'nggi yillarda davlat hokimiyati va boshqaruvining samarali faoliyat ko'rsatishining zarur sharti sifatida jamoatchilik nazorati tobora rivojlanib bormoqda. Jamoatchilik nazorati yurtimizda uzoq tarix ildizlarga ega. Bu institut bizda qadim-qadimdan oqsoqollar Kengashi ko'rinishida namoyon bo'lib kelgan. Bu Kengashlar mahallalardagi obodonlashtirish, aholi muammolarini hal etish, o'zini-o'zi himoya qilish, hamisha ogoh va hushyor bo'lish, farzandlar tarbiyasiga loqayd qaramaslik va boshqa jamoat ishlari bilan shug'ullanadigan jamoatchilik tuzilmasi hisoblangan[27].

Jamoatchilik nazorati turli sohalar, xususan, nazorat, profilaktika, tashkiliy va norma ijodkorligi doirasida o'tkazilishi mumkin[28]. Shu sababli norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar jamoatchilik nazorati shaklida ham ishtirok etishlari mumkinligi qonun bilan belgilanadi. "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga ko'ra qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda jamoatchilik manfaatlarini, jamoatchilik fikrini hisobga olish jamoatchilik nazorati ob'ektlaridan biri hisoblanadi.

Davlat va jamiyat hayotidagi eng muhim masalalarni qabul qilishga vakolatli sub'ekt sifatida fuqarolar **referendum shaklida** norma ijodkorligi faoliyatini bevosita amalga oshirishlari mumkin.

Fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonidagi ishtirokini sub'ektlariga ko'ra individual, guruh va jamoa kabi uchta turga ajratish mumkin[8].

Individual (alohida shaxs) turda fuqarolar norma ijodkorligi jarayonida yakka holda ishtirok etadilar. Jumladan, axborot olish, huquqiy munosabatlar ishtirokchisi shaklida fuqarolar ishtirokini shular jumlasiga kiritish mumkin. Axborot olish, huquqiy munosabatlar ishtirokchisi, jamoatchilik nazorati shakllarida fuqarolar guruh ko'rinishida ishtirok etishlari mumkin. Qonunchilik tashabbusi, umumxalq muhokamasi, jamoatchilik muhokamasi va referendum shakllari jamoa turzida amalga oshirilishini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagilar bilan birga, fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtirokini amalga oshirish ko'rinishiga ko'ra og'zaki, yozma va elektron turlarga ajratish mumkin. Ma'lumki, fuqarolar davlat organlariga og'zaki, yozma va elektron shakllarda murojaat etishlari mumkin. Mazkur qoidani norma ijodkorligi jarayonida ishtirok etishga nisbatan ham qo'llash mumkin. Ishtirok etish shakllarining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra aynan bir shaklni fuqarolar og'zaki, yozma yoki

elektron tarzda amalga oshirishlari mumkin bo'lsa, ayrimlari esa faqat muayyan bir tarzda amalga oshiriladi. Xususan, axborot olish va jamoatchilik nazorati kabi shakllar yozma va elektron tarzda bo'lish bilan birga, og'zaki tarzda ham amalga oshiriladi. Qonunchilik tashabbusi va huquqiy munosabatlar ishtirokchisi shakllari faqat yozma tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida elektron ishtirok etishi axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda ishtirok etish yoki uning qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatish tushuniladi. Internetning o'zi bugungi kunda tajribasiz ishtirokchilarga ham kerakli ma'lumotlarni taqdim etmoqda va bu orqali qisqa davr ichida tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasi yuzasidan fikr almashinuviga xizmat qilmoqda[9].

Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokini uch bosqichga ajratish orqali tahlil qilish mumkin. **Birinchi bosqich.** Axborotdan foydalanish – bu ishtirok etishning butun jarayoni asosida yotgan birinchi, asosiy va muhim bosqichdir. Mazkur bosqich orqali fuqarolar norma ijodkorligi jarayoniga kirib keladi. Axborot olish bosqichining qay darajada oqilona tashkil etilishi keyingi bosqichlarning samarali tarzda o'tkazishning kafolati bo'ladi. **Ikkinchi bosqich.** Muhokamalar – bu vakolatli davlat organlari fuqarolarni muayyan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari bo'yicha o'z fikrlarini, sharhlarini, qarashlarini va fikr-mulohazalarini bildirishga taklif qiladigan ishtirok etishning navbatdagi bosqichidir. Muhokamalar, odatda, ishtirokchilarning katta guruhi bilan tashkil etiladi. **Uchinchi bosqich.** Faol ishtirok etish norma ijodkorligi jarayonining barcha bosqichlarida (loyihani ishlab chiqish, muhokama qilish, qabul qilish, amalga oshirish) yaqindan hamkorlik qilishni anglatadi. Bu ishtirok etishning eng yuqori ko'rinishi hisoblanib, fuqarolarning hukumat vakillari bilan bir stolda o'rindiqlarini baham ko'radigan holat sifatida ta'riflanishi mumkin[10].

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Понкин И.В., Редкина А.И. Классификация как метод научного исследования, в частности в юридической науке // Вестник Пермского университета. 2017. – №. 37. – С. 255. (Ponkin I.V., Redkina A.I. Classification as a method of scientific research, in particular in legal science // Bulletin of Perm University. 2017. - No. 37. - P. 255.)
2. Pearson K. The Grammar of Science. New York: Meridian Books, 1957. – P. 394.
3. Мейен С.В., Шрейдер Ю.А. Методологические аспекты теории классификации // Вопросы философии. 1976. – №12. – С. 67 (Meyen S.V., Shreider Yu.A. Methodological aspects of classification theory // Questions of Philosophy. 1976. – No. 12. – P. 67)
4. Melody Y. Kiang. A comparative assessment of classification methods // Decision Support Systems. 2003. – №35. – P. 441
5. Багдасаров В.Ю. Основания классификации правотворчества // Журнал российского права. 2012. – №11. –С. 49 (Bagdasarov V.Yu. Grounds for classification of lawmaking // Journal of Russian Law. 2012. – No. 11. –P. 49)
6. Csaba Kiss. Legislative Decision-Making and Access Rights. 2008. – P. 12
7. Огнева. Е.А. Правовое регулирование правотворческой инициативы граждан как гарантия реализации прав человека: зарубежные практики // Серия Философия. Социология. Право. 2013. – №16. – С. 190. (Ogneva. E.A. Legal regulation of citizens' lawmaking initiative as a guarantee of human rights implementation: foreign practices // Series Philosophy. Sociology. Law. 2013. – No. 16. – P. 190.)
8. Dominik Steiger. A constitutional theory of imperative participation: delegated rulemaking, citizens' participation and the separation of powers doctrine // Albany Law Review. 2016. – №79/1. – P. 63.
9. Marina Pietrangelo. Legislative drafting and online consultation: a contribute to lawmaking for better regulation?. Working Paper Series. 2019. – №53. – P. 10.
10. Code of good practice for civil participation in the decision-making process. Conference materials of International Non-Governmental Organisations (INGOs) of the Council of Europe. 2019. – P. 12.

11. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 51-son, 637-modda; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021 y., 10/21/3313/0724-son (Collection of Legislative Acts of the Republic of Uzbekistan, 2015, No. 51, Article 637; National Database of Legislative Information, 28.07.2021, No. 10/21/3313/0724)
12. Sodikov A. Some problems of norm-making process in support with information // Yuridik fanlar axborotnomasi. 2020. – №3-son. – B. 5. (Newsletter of Legal Sciences. 2020. – Issue №3. – P. 5.)
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 17.06.2021 y., 06/21/6247/0563-son, 09.04.2022 y., 06/22/101/0288-son, 15.06.2022 y., 06/22/154/0524-son (13. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On additional measures to ensure the openness of the activities of state bodies and organizations, as well as the effective implementation of public control” // National database of legislative information, 17.06.2021, No. 06/21/6247/0563, 09.04.2022, No. 06/22/101/0288, 15.06.2022, No. 06/22/154/0524)
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 08.08.2018 y., 06/18/5505/1639-son; 09.11.2019 y., 06/19/5870/4010-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021 y., 06/21/6218/0398-son (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On approval of the Concept of improving the activity of normative acts” // National database of legislative documents, 08.08.2018, No. 06/18/5505/1639; 09.11.2019, No. 06/19/5870/4010; National database of legislative documents, 30.04.2021, No. 06/21/6218/0398)
15. <https://house.louisiana.gov>
16. Афиногенов Д.В. Законодательная инициатива граждан и их объединений в Российской Федерации // URL: <http://www.civisbook.ru> (Afinogenov D.V. Legislative initiative of citizens and their associations in the Russian Federation // URL: <http://www.civisbook.ru>)
17. Об общественном договоре. Трактаты / Пер. с фр. — М.: «КАНОН-пресс», «Кучково поле», 1998. — С. 56 (On the Social Contract. Treatises / Translated from French. — М.: "CANON-press", "Kuchkovo Pole", 1998. — P. 56)
18. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021 y., 03/21/682/0354-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.03.2022 y., 03/22/756/0180-son. (Law of the Republic of Uzbekistan "On Regulatory and Legal Acts" // National Database of Legislative Information, 04/20/2021, No. 03/21/682/0354; National Database of Legislative Information, 03/03/2022, No. 03/22/756/0180.)
19. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild (birinchi qism) Adliya vazirligi. – T.: «Vektor-Press», 2010.– 816 b.–(Professional (malakali) sharhlar). (Commentary on the Civil Code of the Republic of Uzbekistan. Volume 1 (part one) Ministry of Justice. – T.: “Vector-Press”, 2010.– 816 p.– (Professional (qualified) comments))
20. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh. 1-jild (birinchi qism) Adliya vazirligi. – T.: «Vektor-Press», 2010.– 816 b.–(Professional (malakali) sharhlar). (Commentary on the Civil Code of the Republic of Uzbekistan. Volume 1 (part one) Ministry of Justice. – T.: “Vector-Press”, 2010.– 816 p.– (Professional (qualified) comments))
21. Акилов А. Значение сравнительного законовещения на современном этапе развития страны // Qonunchilik muammolari axborotnomasi. 2021. – №1. – Б. 49. (21. Akilov A. The Importance of Comparative Law at the Current Stage of the Country’s Development // Newsletter of legislative problems. 2021. – #1. - B. 49.)
22. O‘zbekiston Respublikasining “Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 y., 1-2-son, 14-modda; O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2004 y., 51-son, 514-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.09.2019 y., 03/19/563/3685-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son (Law of the Republic of Uzbekistan "On Public Discussion of Draft Laws" // Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, 2001, No. 1-

- 2, Article 14; Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2004, No. 51, Article 514; National Database of Legislative Documents, 05.09.2019, No. 03/19/563/3685; National Database of Legislative Data, 21.04.2021, No. 03/21/683/0375)
23. European Commission. Better regulation guidelines – Stakeholder consultations. available at <https://ec.europa.eu/info/sites/info/files/better-regulation-guidelines-stakeholderconsultation.pdf>
24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda huquqiy xizmat ko‘rsatishda adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures to further increase the efficiency of the activities of justice bodies and institutions in ensuring the rights and freedoms of citizens and providing legal services” // National Database of Legislative Information, 18.03.2022, No. 06/22/89/0227)
25. Piotr Mikuli, Grzegorz Kuca. The Public Hearing and Law-Making Procedures. <https://link.springer.com/content/pdf/10.1007/s10991-016-9177>. Published online: 27 February 2016
26. Tanja Aitamurto. Collective Intelligence in Law Reforms: When the Logic of the Crowds and the Logic of Policymaking Collide. <https://www.researchgate.net/>
27. Tulyakov E. Jamoatchilik nazoratida jarayon emas, natija muhim. <https://strategy.uz/index.php?news=799> (Tulyakov E. In public control, the result is important, not the process. <https://strategy.uz/index.php?news=799>)
28. Гончаров В.В. — Сущност и значение категории «общественный контроль власти» // Политика и Общество. – 2018. – № 10. – С. 9 (Goncharov V.V. - The essence and meaning of the category "public control of power" // Politics and Society. - 2018. - No. 10. - P. 9)

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

10 ЖИЛД, 2/3 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 10, НОМЕР 2/3

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 10, ISSUE 2/3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000